

POSTNOKLASSIK FAN DAVRIDA DUNYONING ILIMY BILISH NAZARIYASI VA UNING ISTIQBOLI

Akmalova Salomat Pardayevna

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy Fanlar Fakulteti
"Falsafa" kafedrası 70220501-Falsafa (sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistratura
talabasi+998 97 177 71 23*

Annotatsiya: Yuqori darajada taraqqiy etagn fan va axborotlashishga asoslangan bugungi postnoklassik fan davrida dunyoning ilmiy bilish naaariyasi va unga oid bo'lgan nazariy hamda amaliy vositalar kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu vositalarning har birini falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish va yangi tushunchalar bilan boyitish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois ushbu maqolada postnoklassik fan davrida dunyoning ilimiy bilish nazariyasi va zamoniy dunyo o'rtasidagi aloqadorlik masalalari falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, falsafiy dunyoqarashning rivojlanishida ushbu nazariyaning o'rni, bugungi kundagi ahamiyati hamda kutilayotgan natijalar falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Nazariya, fan, innovatsiya, modernizatsiya, postnoklassik fan, kreativlik, dunyoqarash, demorkatsiya

В ЭПОХУ ПОСТКЛАССИЧЕСКОЙ НАУКИ МИРОВАЯ НАУЧНАЯ ТЕОРИЯ ПОЗНАНИЯ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВА

Акмалова Саламат Пардаевна

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека факультет
Социальных наук кафедра "Философия" направление 70220501-философия (по
направлениям) студент 2 курса магистратуры+998 97 177 71 23*

Аннотация: В сегодняшнюю постклассическую эпоху, основанную на высокоразвитой этнологической науке и информатизации, с каждым днем появляется все больше научных знаний о мире и связанных с ними теоретических и практических инструментов. Актуальным остается рассмотрение каждого из этих средств с философской точки зрения и обогащение их новыми концепциями. Поэтому в данной статье философский анализируются вопросы взаимосвязи теории научного познания мира и современного мира в эпоху постклассической науки. Также философски проанализированы роль этой теории в развитии философского мировоззрения, ее значение на сегодняшний день, а также ожидаемые результаты.

Ключевые слова: теория, наука, инновации, модернизация, постклассическая наука, креативность, мировоззрение, деморализация

Mavzuning dolzarbligi..Bizga ma'lum bo'lgan insoniyatning ming yillik tarixi o'rganish jarayonida biz uni atrof-muhitni, tabiatni va o'zini anglashga intilganligini bilib olamiz.

Bu izlanishlar natijasi o'laroq biz bilish jarayoni shakllanish tarixi va unga oid bo'lgan turli bosqichlarda rivojlangan: mifologik, diniy, falsafiy va nihoyat ilmiy bilish tushunchalariga guvoh bo'lamiz. Epistemologik falsafiy yo'nalish doirasida ¹⁷bu nazariya inson tafakkuri orqali haqiqatni qanday anglash mumkinligini, va uning qanday paydo bo'lishini va uning ishonchliligini o'rganadi. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish konuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq tabiat va jamiyatni, nihoyat o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usulini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega.

Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi — gnoseologiya vujudga keldi. Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Dunyoni va uning qonunlarini inson bilan oladimi, bilish qanday amalga oshadi, uning asosiy shakllari, haqiqat mezoni falsafiy masalalar tahlili bilan gnesiologiya (yunon. «gnosis» – «bilim» va «logos» – «tushuncha» «ta'limot» ma'nolarini anglatib «bilimlar to'g'risida tushuncha» va «bilimlar to'g'risida ta'limot» – degan ma'nolarni bildiradi), kognitiv psixologiya (bilish jarayoni bilan shug'ullanuvchi psixologiya), mantiq va ilmiy bilish metodologiyasi va boshqa maxsus fanlar shug'ullanadi. ¹⁸Ilmiy bilishda haqiqat mezoni — bu amaliyotdir. Ya'ni, agar nazariya yoki gipoteza amaliyotda o'zini oqlasa, u haqiqat deb qabul qilinadi. Shu sababli ilmiy bilim doimo o'zgaruvchan, takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi.

Yangi ma'lumotlar asosida eski nazariyalar qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar Bilsh tarixiga nazar solar ekanmiz ilmiy bilish tushunchasi tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib borgan. ilmiy bilish dastlabki bosqichlarda insonlar dunyoni mifologik va diniy tasavvurlar orqali tushunishga harakat qilganlar. Falsafaning paydo bo'lishi bilan bilishga asoslangan metodlar shakllandi, ammo bu bilish hali ilmiy asosga ega emas edi. Qadimgi Yunonistonda ilk marotaba Aristotel, Platon kabi faylasuflar bilish va uning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Ilmiy bilsh boshqa nazariyalar kabi o'rta asrlar teologik muhitini va cherkov tomonidan qarama-qarshiliklarga duch keldi. Yangi davrga kelib ilmiy bilish cherkov asoratlaridan qutulib "ozodlik" ga erishdi, ya'ni XVI–XVII asrlarda Galileo Galiley, Nyuton kabi olimlar ilmiy bilshda yangi metodlarni va tajriba va kuzatuvga asoslangan bilish uslubini shakllantirdi. XX asrda ilmiy bilish falsafasi yanada murakkablashdi, Karl Poppening "falsifikatsiya prinsipi", Tomas Kunning "ilmiy inqiloblar" nazariyasi paydo bo'ldi. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, ilmiy bilish bir joyda turg'un emas, balki doimiy o'zgarish va moslashish jarayonida bo'ladi. Dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasi o'zining tarixdan oldingi kabi, insoniyat

¹⁷ Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. T., 2005-y

¹⁸ Tulenov J. T. Filosofskie problema nauki. T., 2001-y

jamiyati rivojlanishi davomida ming yillar davomida bilimlarni bosqichma-bosqich to'plash ega. Insoniyat tarixida dunyoning juda ko'p xilma-xil manzaralarini yaratgan va mavjud bo'lib, ularning har biri dunyoni ko'rish va o'ziga xos tushuntirish bilan ajralib turardi.

Biroq, dunyoning eng keng va to'liq manzarasini ilmiy nazariyalar beradi, u dunyo va undagi insonning o'rni haqida ma'lum bir tushunchani yaratadigan fanning eng muhim yutuqlarini o'z ichiga oladi. U o'ziga xos hodisalarning turli xususiyatlari, kognitiv jarayonning o'zi tafsilotlari haqidagi shaxsiy bilimlarni o'z ichiga olmaydi. Dunyoning ilmiy manzarasi - bu ob'ektiv dunyo haqidagi insoniyatning barcha bilimlarining yig'indisi emas, u voqelikning umumiy xususiyatlari, sohalari, darajalari va qonuniyatlari haqidagi g'oyalarning yaxlit tizimidir. Dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasining asosini birinchi navbatda fizika sohasida olingan fundamental bilimlar tashkil etadi. Biroq, o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida biologiya dunyoning zamonaviy ilmiy rasmda etakchi o'rinni egallaydi, degan fikr tobora kuchayib bordi. Bu biologik bilimlarning dunyoning ilmiy manzarasi mazmuniga ta'sirini kuchaytirishda ifodalanadi.

Biologiya g'oyalari asta-sekin umuminsoniy xususiyat kasb etib, boshqa fanlarning asosiy tamoyillariga aylanadi. Xususan, zamonaviy fanda bunday universal g'oya rivojlanish g'oyasi bo'lib, uning kosmologiya, fizika, kimyo, antropologiya, sotsiologiya va boshqalarga kirib borishi. insonning dunyoga bo'lgan qarashlarining sezilarli o'zgarishiga olib keldi. O'z o'rnida bugungi kunda dunyoni ilmiy bilish nechta dolzarb muammolar mavjud bo'lib bular, fanlararo integratsiya, axloqshunoslik va axborot texnologiyalari uyg'unligi, Ilm-fanning iqtisodga aralashuvi hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya muammosida bunda murakkab muammolarni hal qilish uchun bir nechta fan birlashadi va muammolar hal bo'ladi masalan biologiya, fizika, informatika, falsafa kabi fanlarning integratsiyasi hisoblanadi bu esa dunyoning ilmiy manzarasini yanada boyitishda yordam beradi. Axloqshunoslik va axborot texnologiyalari uyg'unligiga kelsak sun'iy intellekt, biotexnologiya kabi yo'nalishlarda ilmiy yutuqlar axloqiy masalalarni keltirib chiqarmoqda. Ilmning tijoratlashuvi esa ilmiy tadqiqotlar ko'proq iqtisodiy foyda uchun olib borilishi haqiqatni bilishga emas, foyda olishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda soxta ilmiy nazariyalar ham internet va ommaviy axborot vositalarida ilmiy bo'lmagan, lekin ilmiydek ko'rsatilayotgan fikrlar tarqalmoqda.

Bugungi kunda dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasi bevosita suniiy intellekt bilan bevosita bog'langan chunki suniiy intellekt tibbiyotda kasalliklarni oldindan aniqlash, dori sinovlarida model yaratish, fizikada katta hajmdagi tajriba natijalarini tahlil qilish, biologiyada genetik ma'lumotlarni tahlil qilish, yangi gen terapiyalarini ishlab chiqishda keng hajmda qo'llanilmoqda. XXI asr fan texniak taraqqiyoti davrida dunyoning zamonaviy manzarasi biotexnologiya va genetik tahrirlash, kvant texnologiyalari iqlim o'zgarishi va yashil fan, kosmosdagi yangi davr masalalari bilan kundan kunga boyib bormoqda.

O'zbekistonda ham 2021-yilda "Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi" qabul qilindi va 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash kuchaytirildi. Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, va Yoshlar akademiyasi orqali ilmiy loyihalarni moliyalashtirish yo'lga qo'yilmoqda.

Bularning barchasi bugungi postnoklassik fan davrida dunyoning ilmiy manzarasini yanada boyitishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Tulenov J.T. Filosofskie problema nauki.T., 2001-y
2. Saifnazarov I, Qosimov V. "Ilmiy ijod metodologiyasi" dan ma'ruzalar matni.T., 2004-y
3. Shermuhammedova N.Falsafa va fan metodologiyasi. T., 2005-y
4. Shermuxammedova N. «Filosofiya i metodologiya nauki»T., 2003-y
5. Saifnazarov I.Metodologiya nauchnogo tvorchestva.T., 2004-y
6. Z.Davronov. Ilmiy ijod metodologiyasi.T., 2006-y
7. Saifnazarov I, Qosimov V, Nikitchenko G."Fanning falsafiy masalalari". T., 2006-y
8. TulenovJ, Valieva S. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi".T., 2008-y